

**SHAXSLARDAGI INDIVIDUALLIK XUSUSIYATLARINI BARTARAF
ETISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI**

Madalieva Muslima Muxammadovna

*Farg'ona viloyati Dangara tumani MMTB tasarrufidagi 8-umumiy ta'limi
maktabi amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: *Individuallik – har bir insonning o'ziga xosligi, boshqa kishilardan farq qilishi, psixologiyada keng muhokama qilinadigan tushunchadir. Har bir inson o'ziga xos shaxsiy xususiyatlar, qarashlar va fikrlarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *individuallik, psixologik muammolar, shaxsiy identifikatsiya, o'z-o'zini anglash, xarakter, ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy xususiyatlar, psixologik izlanishlar, ruhiy holat, individ*

KIRISH

Individuallik – har bir insonning o'ziga xosligi, boshqa kishilardan farq qilishi, psixologiyada keng muhokama qilinadigan tushunchadir. Har bir inson o'ziga xos shaxsiy xususiyatlar, qarashlar va fikrlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, individuallik, odamning jamiyatda qanday o'rin tutishi, o'zligini qanchalik anglashi va atrof-muhit bilan qanday moslashishiga ta'sir qiladi. Lekin, individuallik ba'zi holatlarda psixologik muammolarga olib kelishi mumkin, sababi odam o'zining yagonaligi va ijtimoiy normalarga mos kelmasligi bilan bog'liq qiyinchiliklarni boshdan kechirishga moyil bo'ladi. Individuallikning psixologik muammo sifatida ko'rilishi ko'p faktorlarga bog'liq. Individuallik (loticha "individuum" — "bo'linmas") — muayyan narsa va hodisa, shaxs va jonivorning o'zigagina xos, betakror, xususiy belgilar. Belgi sifatlarining o'ziga xosligi bilan individuallik umumiylikka (individ esa umumga) qarama-qarshi qo'yiladi.

Dastlab, individuallik antik davrda atoqli yunon faylasuflari Levkipp va Demokrit tomonidan muayyan mazmun va shaklga, ya'ni o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan narsa va hodisalarga, jumladan, atom yoki individ (ya'ni, bo'linmas) kabilarga xos xususiyatlarni aniqlash jarayonida ma'lum bo'lgan. Qadimgi Rim faylasufi Seneka



individuallik tushunchasini yanada takomillashtiradi. I. o'ziga xos xususiyatlarni va mazmunini yo'qotmay turib, boshqa bo'laklarga bo'linmaydigan aniq bir narsa (mavjudot) ekanligini e'tirof etgan. O'rta asrlar falsafasida individuallik inson shaxsi tushunchasini ifodalagan. XVII asrda individuallik bilan bog'liq fikr mulohazalar nemis faylasufi Leybnits ta'limotida atroflicha rivojlantiriladi. Individuallik nemis adibi I. V. Gyote ijodida ham o'z ifodasini topdi. Individuallik romantizm dunyoqarashi uchun ham xos xususiyatdir.

Hozirgi individuallik tushunchasi ilm-fanda turli ma'nolarda ishlatiladi. Masalan, biologiyada I. biror organizmga xos irsiy yoki keyinchalik paydo bo'lgan xususiyatlarning o'ziga xosligidir; psixologiyada muayyan bir shaxsning fikrilashi, sezgisi, irodasi, istak va intilishi, ehtiyoji, qiziqishi, kayfiyati, hissiyoti, ahvoli, xatti-harakati, odati, mayli, qobiliyati va boshqa sifatlarini, shuningdek, mijozi va tabiatining o'ziga xosligini anglatadi. Ijtimoiy fanlarda individuallik olomonga, guruhga zid tushuncha sifatida o'rganiladi. Adabiyotshunoslikda individuallik badiiy obrazning o'ziga xos xususiyatlari asarda qay darajada hayotiy, haqqoniy aks ettirilganini ko'rsatadigan mezon bo'lib xizmat qiladi. Badiiy asar qahramonining o'ziga xosligi uning milliyligi va qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligini ham belgilaydi. Yozuvchining o'ziga xos tili va uslubiga xos belgilar ham individuallikni tashkil etadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, individuallik ayni bir ijodkorga, balki insonga xos shaxsiyat hisoblanadi. Ma'lum bir obyektiv fikrga o'z subyektiv bahosini ko'rsatish. Bu ko'pincha badiiy uslubda ishlatilganda poetik individuallik yuzaga chiqadi. Yani, ijodkor o'ziga xos lug'aviy birliklarni kiritishi, ulardan foydalanishi, his-kechinmalarini ular orqali jozibali talqin qilishidir.

Birinchidan, individuallik ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Ijtimoiy norma va qadriyatlar doirasida yashashga majbur bo'lgan odamlar, o'zlarining o'ziga xosligi yoki farqlari tufayli boshqalardan ajralib turishi mumkin. Bu, o'z navbatida, izolyatsiya, o'zini past baholash, depressiya kabi psixologik holatlarga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, individuallik shaxsning o'zligini tushunish, uni qabul qilishida psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. O'ziga xoslik, insonni o'zlikni anglashi odamning o'z hayotini va qarorlarini boshqarishga qodir



bo'lishi uchun zarur bo'lsa-da, ba'zan bu jarayon murakkablashadi. O'ziga bo'lgan ishonchsizlik, ijtimoiy xavotirlar yoki kelajakdagi istiqbolga bo'lgan mavhumlik kishi o'zligini anglashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Shunday qilib, individuallik o'ziga ishonchsizlik psixologik muammolarga olib kelishi mumkin. Individuallik, bir tomondan, insonning o'ziga xosligini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, jamiyat bilan moslashuvda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda, o'ziga xos va boshqalardan ajralib turadigan shaxslar "oddiy" deya hisoblanmaydi. O'z navbatida, ijtimoiy tanqidga, rad etilishiga va shaxsiy kamchiliklarni his qilishga olib keladi. O'ziga xoslikni orzu qilgan odamlar ko'pincha o'zlarini noto'g'ri va yoki noto'g'ri tushunilgan deb hisoblashadi, bu esa ularning psixologik holatiga salbiy ta'sir qiladi.

Odamlarning o'ziga xoslikni qabul qilishidagi muammolar ko'pincha ijtimoiy izolyatsiya, o'zini o'zgalar bilan taqqoslashdan kelib chiqadi. Ommaviy axborot vositalari orqali o'zini boshqalardan ajratib ko'rsatishga bo'lgan intilish, shaxsning o'zligini yo'qotishiga va atrofdagilarning me'yorlariga moslashishga olib kelishi mumkin. O'ziga xoslikni qo'llab-quvvatlashda jamiyatning noxush munosabati, insonni yakkalanishga va ichki ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Individuallikning psixologik muammo sifatida ko'rilishi, ayrim hollarda, ruhiy kasalliklarning rivojlanishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Masalan, o'ziga xoslikni qabul qilishda qiyinchiliklar, depressiya, stressni kuchaytirishi mumkin. Ijtimoiy normalar bilan mos kelmaslik, odamning o'zini izolyatsiya qilishiga olib kelishi va bu ham psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. O'ziga xoslikni qabul qilishni o'rganish, shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, psixologik farovonlikni yaxshilash va stressni kamaytirish uchun muhimdir. Shuning uchun, individuallikni psixologik nuqtai nazardan o'rganish va insonlar o'zligini topishda yordam berish psixologiyaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

XULOSA

Individuallik, o'ziga xoslik va boshqalardan farqlanish ijtimoiy jihatdan ham muhimdir. Biroq, har bir odam o'ziga xos bo'lib qolish jarayonida ko'plab psixologik muammolarga duch kelishi mumkin. Ijtimoiy moslashuv, o'zligini anglash va qabul



qilish kabi jarayonlar, ba’zida psixologik stress, depressiya yoki izolyatsiyaga olib kelishi mumkin. Bunday muammolarga qarshi kurashish va individuallikni qo’llabquvvatlash psixologik farovonlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Odamlarning o’ziga xosligini qabul qilish va jamiyatga moslashish jarayonida qo’llabquvvatlash zarurati, psixologiyaning asosiy yo’nalishlaridan biriga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva, X. (2011). Psixologiya asoslari. Toshkent: "O‘zbekiston" NMIU.
2. Azimov, A. (2015). Psixologiya va uning metodlari. Toshkent: O‘zbekistan, Fan va texnologiya.
3. Kamilov, M. (2010). Individning psixologik rivojlanishi. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Qodirov, T. (2008). Psixologik jarayonlar va individning rivojlanishi. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi.
5. Toshpo‘latov, R. (2017). Inson va jamiyat psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Matbuoti.
6. Shodiev, S. (2019). Insonning psixologik integratsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
7. Internet ma’lumotlari